ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 4,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

DARVISHOV IBROHIM
Shevalardagi ayrim fonetik-fonologik belgilar
(Janubi-g‘arbiy Namangan qipchoq shevalari misolida) 7

ПАНЖИЕВА НАСИБА НАРМАХМАТОВНА
Теория концептуальной интеграции как
инструмент анализа стилистических приёмов 10

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH,
QO‘CHQORALIYEVA FOTIMA ZOKIRJON QIZI
Til kontakti va so‘z o‘zlashuvi muammolari 13

BEGMATOVA GULCHEHRA
«Qush» semantik komponentli idiomalar tadqiqiga doir kuzatishlar 16

QAZAQOVA NOZIMA ABDULBOQIYEVNA,
HAMRAYEVA YORQINOY NABIJANOVNA
Matn kommunikativ-pragmatik tahlilining asosiy tamoyillari 19

SHAMSUDINOVA IKHBOL
Yordamchi so‘zlar bazasini yaratishda reprezentativlikning ahamiyati 23

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Nutqda paremiyalarga xos milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishi 27

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ
Теоретические аспекты соотношения фрейма и концепта 31

KULTAYEVA FAZILAT
Hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati 34

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH
Surxondaryo dialektal- etnografik leksikasida turli din va madaniyat belgilari 38

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Biznes diskursini sinergetik yondashuvda o‘rganish masalasi 41

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar haqida ba’zi mulohazalar 45

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Тенденции негативной оценки в узбекских и русских пословицах 48

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» asarida qo‘shma fe’llarning berilishi 52

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA
«Qisasi Rabg‘uziy» asarida qo‘llangan frazemalarning lingvostatistik
tahlili va keyingi davr tiliga munosabati 55

XASANOVA KAMILA BAXTIYOROVNA
Etnografik leksika va stereotiplar 58

DARVISHALIYEVA MAHLIYO RUSTAMALI QIZI
Mahmud Koshg‘ariy davri turkiy til va hozirgi Namangan
qipchoq shevalari fonetik xususiyatlari 61

МУНДАРИЖА

USMONALIYEV SHAHBOZ
O‘zbek tilshunosligida teonimlarning tadqiqi: muammolar va yechimlar 64

MAMIROVA XAYRINISO KOMILJON QIZI
Birinchi tilni o‘zlashtirishga oid nazariyalar 66

XOLMURODOVA SUMBULA NORMO‘MIN QIZI
Tog‘ay Murod asarlari asosida mualliflik korpusini yaratish asoslari va bosqichlari..... 70

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH
Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasi tadqiqi masalasi 72

ADABIYOTSHUNOSLIK

РЎЗИҚУЛ МУСТАФОҚУЛОВ,
НАФОСАТ САЙФИДДИНОВА,
Икки дарё оқиб ўтди..... 75

SHUKUROV AHAD
Satrlarga sig‘mas so‘zlarim… 81

АМАНЖОЛОВА ДЖЕММА БОЛАТОВНА,
ШАЙМЕРДЕНОВА НУРСУЛУ ЖАМАЛБЕКОВНА
От устной традиции к цифровому архиву: сохранение и популяризация тюркского эпоса в XXI веке… 83

KARIMOV OBIDJON
Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini..... 87

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Литература как пространство идентичности: диалог русской и узбекской малой прозы в постсоветскую эпоху… 90

ПУЛАТОВА САЙЁРА ЮЛДАШОВНА
Проблемы и достижения в переводе «Улисса» на узбекский язык…..... 93

UMAROV BOBOQAND IKROMOVICH,
Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy iztirob va ruhiy yolg‘izlik 97

KARJAVUV G‘OLIB AZAMAT O‘G‘LI
Muhammad Sharif Gulxaniyning masalchilikdagi badiiy mahorati…..... 100

UMARALIYAVA NAFISA QURBONALI QIZI
Zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali akslanishi…..... 104

BERDIBOYEV ULUG‘BEK SOATBOY O‘G‘LI
Tipologik talqin: adabiy tafakkur, poetik idrok, matn stlistikasi munosabati… 107

DUYSENBAYEV OLIMJON ISMAILOVICH
Romanda syujet va xarakter dinamikasi… 109

Resume. This article provides information on the classification of language contact, its history and study, the formation of contact linguistics as a separate discipline, sociolinguistic phenomena arising from language contact, its types, as well as its use as a basic concept of sociolinguistics in narrow and broad senses.

Резюме. В статье представлена информация о классификации языкового контакта, его истории и изучении, становлении контактной лингвистики как отдельной дисциплины, социолингвистических явлениях, возникающих при языковом контакте, его типах, а также его использовании в качестве основного понятия социолингвистики в узком и широком смыслах.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

«QUSH» SEMANTIK KOMPONENTLI IDIOMALAR TADQIQIGA DOIR KUZATISHLAR

Begmatova Gulchehra,
Termiz davlat universiteti
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Idiomalar etimologiyasi, ya'ni ularning kelib chiqishi va rivojlanishi qiziqarli va ayni damda murakkab hodisadir. So'zlashuvda va internet matnlarida bu borada bir qator idiomalarning qo'llanilganligi mavzu bo'yicha ishlash zaruriyatini uyg'otdi. Qushlar nomi bilan bog'liq idiomalar, asosan, ma'lum bir xalqning tabiatga, qushlarga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Shu o'rinda hayvon semantik komponentli idiomalar tarkibiga «qush» semantik komponentli idiomalarni qo'shish zarurligi yuzaga keldi. Bu guruh kichik guruh bo'lsa-da, o'zbek va xorijiy tillarda mavjud idiomalarni qamrab oladi. Bu komponentli idiomalar safiga «Qora oqqush» idiomasini qo'shgan holda uning telegram ijtimoiy tarmog'ida («Postfaktum» kanalida) izohlangan, ingliz tlida «Qora oqqush» idiomasi mavjud bo'lib, u avvaliga imkonsiz hodisani ifodalash uchun ishlatilgan. Bunga sabab insonlar tabiatda qora oqqushlar mavjud emasligiga ishonishgan. Biroq, XVII asr oxirida Villem de Vlaming boshliq golland ekspeditsiyasi Avstraliyada qora oqqushlarga duch kelgach, idiomaning ushbu ma'nosi asta-sekin muomaladan chiqib, imkonsiz, ammo kashf etilishi mumkin bo'lgan hodisani ifodalay boshlaydi. XXI asrda ushbu idioma yozuvchi Nassim Nikolay Taleb muallifligida «Qora oqqush» asari orqali ommalashtirilgan, shu bilan birga muallaif butun insoniyatga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan, biroq ilmiy usullar bilan bashorat qilish qiyin bo'lgan voqealarni «qora oqqushlar» deb atagan, ya'ni Taleb Birinchi jahon urushi, Sobiq Ittifoqning parchalanishi, internet va shaxsiy kompyuterlarning paydo bo'lishi yoki 2001-yil 11-sentabrdagi terraktlarni qora oqqushlar qatoriga kiritgan[1]. Siyosatda va umuman nutqda «Qora oqqush» idiomasi mavjud bo'lib, u avvaliga imkonsiz hodisani ifodalash uchun ishlatilgan. Bunga sabab odamlar tabiatda qora oqqushlar mavjud emasligiga ishonishgan. Bu atama qadimgi Rim satirikining «*rara avis in terris, nigroque simillima cygno*» so'zining eng qadimgi iqtibosiga borib taqaladi, bu «qora oqqush yerdagi noyob qush» deb tarjima qilinadi va

[1] Нассим Николас Талееб. Черный лебедь. Под знаком непредсказуемости. Yana qarang: Nassim Nicholas Taleb. The Black Swan: The Impact of the Highly Improbable. Random House, 2007.

ular bu birlikni dastlab imkonsiz narsa haqida gapirishganda ishlatishgan. 17-asrning oxirida gollandiyalik tadqiqotchilar G‘arbiy Avstraliyada qora oqqushni topmaguncha, oqqushlar faqat oq rangga mavjud deb hisoblangan. XXI asrda atama nazariya shaklida amerikalik matematik va iqtisodchi Nassim Nikolas Taleb tomonidan ishlab chiqilgan va u o‘zining «Qora oqqush» birligini ilmiy usullar bilan bashorat qilish qiyin bo‘lgan hodisa sifatida o‘z kitobida ochib bergan va o‘z navbatida bu shu nomli nazariyaning paydo bo‘lishiga olib keldi. «Qora oqqush» nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, siz bilmagan narsangiz bilganingizdan muhimroqdir. Siz o‘zingizning barcha bilimlaringizni har qanday baxtsiz hodisaga tayyorlanish uchun ishlatishingiz mumkin. Ushbu tezis taniqli printsiplar va formulalarga asoslangan har qanday prognozlarga ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Taleb «qora oqqushlar» ning uchta xususiyatini aniqladi:

1. Hayratlanarli va oldindan aytib bo‘lmaydigan hodisa;

2. Jiddiy va ba’zan halokatli oqibatli hodisa;

3.Voqeadan keyingi ratsionalizatsiya, ya’ni retrospektiv moyillik paydo bo‘lishi.

Hozirgi kunda internet global tarmog‘ida «qora oqqush» idiomasi nafaqat xorijiy, balki o‘zbek tilidagi matnlarda ham qo‘llanilganligi aniqlandi.

Bundan tashqari, «qush» semantik komponentli idiomalar ilmiy va publitsistik nutqda faol qo‘llanilmoqda. Xususan, navoiyshunos olima Suyuma G‘aniyeva nutqida «oqqush qo‘shig‘i» idiomasi qo‘llanilgan bo‘lib, ma’lum bir ishning so‘nggisi mazmunida foydalanilgan: «O‘shanda menga Aleksandr Nikolayevich: «Xoja Ahror haqida bir asar yozmoqchiman. Bu mening oxirgi asarim, ya’ni «oqqush qo‘shig‘im» bo‘ladi», degandilar. Aytishlaricha, oqqush umrining oxirida bir marta yayrab sayrar ekan va o‘lar ekan. Ustozimning bu kitobi 1985-yilda nashr etildi. Men bu asarni o‘zbek tiliga tarjima qildim»[1]. «Oqush qo‘shig‘i» idiomasi Tohir Malikning «Shaytanat» asari 4-kitobida ham asarning nomi sifatida berilgan bo‘lib, biz muhokama qilayaotgan qush semantikali idioma asar nomi sifatida keltirilgan. Muallif uni «Oq qush qo‘shig‘i» nomi bila atagan bo‘lib, uning mazmuni quyidagi ma’nolarda ishlatiladi va bevosita shu nomli musiqali kompozitsiya nomidan kelib chiqqan degan xulosaga ham egamiz:

1) Ma’lum bir ishning yakuni;

2) Ma’lum sohadagi faoliyat yakuni;

3) Insonlar vafoti;

4) Sportchilarning karyerasi yakuni va hk.

Qush semantikali idiomalar o‘zbek va boshqa tillarda ham uchrashini inobatga olib, ular haqida ham qiyosiy ma’lumot to‘plandi. Masalan, o‘zbek tilida boshiga baxt qushi qo‘ndi» idiomasi turli folklor manbalarida keltirilgan bo ‘lsa, klasssik adabiyotda qush nomi bilan bog‘liq Semurg‘, Humo, Anqo kabi birliklar ham o‘ziga xos idiomatik birliklar hosil bo‘lishida qatnashgan. Turk tilida qush nomlari bilan bog‘liq ko‘plab iboralar, deyimlar va metaforalar mavjud bo‘lib, ular turli his-tuyg‘ular, fe’l-atvor yoki holatlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Quyida mashhur bo‘lgan deyimlardan ayrimlarini keltiraman: Qush nomlari bilan bog‘liq mashhur turkcha ibora va deyimlar:

1. *Kuş kadar canı var*, ya’ni juda zaif, nimjon odam haqida aytiladi. (O‘zbekchasi: «Jonivor, qushning joniday kichik»)

2. *Kuş gibi hafifleme*k idiomasi yengillashmoq, yengil bo‘lish mazmunida qo‘llanildi. Misol: «Borçlarımı ödeyince kuş gibi hafifledim». O‘zbekchasi: «Yukim yengillashdi, xuddi qushdek bo‘ldim».

3. *Kafesteki kuş gibi* – Erkin bo‘lmagan odamni tasvirlash uchun. «Kendimi kafesteki kuş gibi hissediyorum» – O‘zimni qafasdagi qushdek his qilyapman.

4. *Kuş uçmaz, kervan geçmez* – juda kimsasiz, huvillagan joy haqida. O‘zbekchasi: «Qush uchmaydigan, odam o‘tmaydigan joy».

5. *Bir taşla iki kuş vurmak* – Bir harakat bilan ikki natijaga erishmoq. O‘zbekchasi: «Bitta tosh bilan ikki qushni urmoq» yoki «Bir o‘q bilan ikki quyonni urmoq varianti ham mavjud.

6. *Ağzı kuş tutsa inanmam* – Juda ishonchsiz odam haqida aytiladi. O‘zbekchasi: «Og‘zida qush tutsayam ishonmayman».

7. *Kuş beyinli* – Qush miyali-aqlli bo‘lmagan, yengil fikrlaydigan odam haqida.

8. *Kuş uçurmak* – Biror yangilikni oshkor qilmoq, tarqatmoq. Misol: «Daha kimseye kuş uçurmadım. Tarjimasi: «Hech kimga og‘iz ochmadim».

9. *Kuş sütü eksik* – Juda hashamatli, barcha narsasi bor (taom, dasturxon haqida). Aynan bu ibora o‘zbek tilida «Qush sutidan boshqa hamma narsa muhayyo» shklida nutqda qo ‘llaniladi. Misol: «Sofrada kuş sütü bile eksik değildi». – «Stolda hatto qush suti ham bor edi».

Albatta, qush nomlari bilan bog‘liq yana ko‘plab turkcha iboralar mavjud. Ular turli sohalarda – kinoya, maqtov, tanqid yoki hissiy holatlarda ishlatiladi.

10. *Kartal gibi bakmak* – Juda o‘tkir, sinchkov nigoh bilan qarash. O‘zbekchasi: «Burgutdek tikilmoq».

11. *Bülbül gibi şakımak* – Chiroyli, tinimsiz gapirish yoki kuylash. O‘zbekchasi: «Bulbuldek sayramoq».

12. *Serçe gibi ürkek* – Juda qo‘rqoq, ehtiyotkor odam haqida. O‘zbekchasi: «Chittakdek qo‘rqoq».

13. *Karga gibi gaklamak* – Yoqimsiz, keraksiz gaplarni gapirish. O‘zbekchasi: «Qarg‘adek qichqirmoq».

[1] https://oyina.uz/uz/article/3775/ Suyima G‘aniyevaning buyuk armoni – olima bilan suhbat.

14. *Tavus kuşu gibi salınmak*- O‘zini ko‘rsatib yurmoq, manman yurish. O‘zbekchasi: «Tovusdek kerilib yurmoq».

15. *Baykuş gibi tünemek* – Yolg‘iz, sokin, g‘amgin holatda yashash (ayniqsa kechasi). O‘zbekchasi: «Boyo‘g‘lidek tun qorong‘isida o‘tirish».

16. *Kırlangıç gibi döner durur* – Odamning tinmay harakatda bo‘lishi, har yerda yurishi. O‘zbekchasi: «Qaldirg‘ochdek uchib yurmoq».

17. «*Kanarday kuylash*» – go‘zal va quvnoq ovoz bilan kuylash, shirin qo‘shiq kuylash demakdir. Ko‘pincha quvonchli, baxtli yoki mamnun kayfiyatni ifodalash uchun ishlatiladi. «Kanareyka kabi kuylash» iborasining ma’nosi quyidagicha: Shirin kuylash,kanareykalar chiroyli va ohangdor tovushlari bilan mashhur. Bu ibora kanareyka kabi go‘zal va shodlik bilan kuylayotgan odamni tasvirlaydi. Baxt va quvonch ifodasi bo‘lgan kanareykalarning qo‘shig‘i ularning quvnoq va baxtli ekanligidan dalolat beradi. Shuning uchun, kimdir uchun «kanareyka kabi qo‘shiq aytish» ular juda baxtli va quvnoq ekanligini ko‘rsatadi. Turklarning kundalik hayotida bu ibora tom ma’noda qush kabi emas, balki quvonchli kayfiyat yoki qo‘shiq harakatini ifodalash uchun majoziy ma’noda qo‘llaniladi.

18. *Kuş kadar mutluyum* – juda baxtli bo‘lish holati. O‘zbekchasi: «Qushdek baxtliman».

19. *Kuş gibi uçuvermek* – To‘satdan ketib qolish, g‘oyib bo‘lish. O‘zbekchasi: «Qushdek uchib ketmoq».

20. *Kuş diliyle konuşmak* – Juda tushunarsiz, noaniq yoki maxfiy til bilan gaplashish. O‘zbekchasi: «Qush tili bilan gaplashmoq».

O‘zbek tilida ham qush nomi, uning tana a’zolari bilan bog‘liq birliklar mavjud, ammo ularning aksariyati salbiy ottenkali mazmunga ega idioma va birliklar hioblanadi. Masalan, tovuq miya, qush miya, qush uyqu, tovusning oyog‘ini ko‘rsatmoq[1] kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Qush semantik mazmunli idiomalar qatoriga «Kolumb tuxumi» idiomasini keltirish o‘rinli. (Bu idiomani maqolada tahlil qilishimizga sabab tuxum qushga oid birlik sifatida olinganligidadir). Bu idioma biror qiyin holatdan kutilmagan oddiy yechimi bilan chiqib ketishga nisbatan ishlatiladi. Idioma etimologiyasiga doir tarixiy hikoyada ziyofat vaqtida bir ispan amaldori Xristofor Kolumbga hasad qilib shunday deydi: «Amerikani ochish qiyin deb o‘ylaysizmi? Yangi yerni ochish - shunchaki oddiy ish, Ptolemey davridan beri ma’lumki - yer dumaloq. Dengizga tushib boshqa tomonga suzsang bas -yangi yerlar chiqib kelaveradi». «Siz haqsiz, bu rostdan ham juda oddiy», - deb javob beradi Kolumb, «qaynatilgan tuxumni vertikal tarzda stolga qo‘yib ko‘ring-chi». Amaldor qancha urinsa ham tuxumni vertikal tarzda stolga qo‘ya olmaydi. Shunda Kolumb «bu juda oddiy ish-ku» deb tuxumning bir tomonini sindiradi va shu tomoni bilan stolga vertikal tarzda qo‘yadi. Bunday yechimni kutmagan amaldorlar «Biz ham shunday qilolardik» deb e’tiroz bildirishadi. Kolumb esa bu e’tirozlarga javoban shunday deydi: «Farq shundaki janoblar, sizlar buni qila olardinglar. Men esa allaqachon bajardim».

Qush mavzusidagi frazeologik va idiomatik birliklar boshqa shu turdagi birliklaning aksariyati kabi badiiy asar va personajlar orqali nutqqa kirib kelgan. Masalan, rus tilidagi «ko‘k qush» iborasi ko‘pincha baxt, omad, amalga oshmaydigan orzu yoki erishib bo‘lmaydigan ideal ramzini anglatadi. Bu ibora Moris Meterlinkning «Moviy qush» pyesasi sarlavhasidan kelib chiqqan bo‘lib, asar qahramoni bo‘lgan Metil va Tiltil bu qushni baxt ramzi sifatida izlaydilar. Qush nomi bilan bog‘liq idiomalar sirasiga *«o‘rdak sho‘rvasi»* (duck soup) idiomasini keltirish o‘rinlidir, ma’lum ish-harakatning oson bitishini anglatuvchi bu idioma ham qush semantikli idiomalar qatoriga kiradi.

«*Setting duck»* idiomasi «butunlay bepul va beg‘araz» degan ma’noni anglatib,oson urib tushiriladigan o‘lja mazmunida Buyuk Britaniya aholisi tomonidan faol nutqda qo‘llanilgan[2].

Xulosa sifatida shuni bildirish muhimki, o‘zbek tilida qushlar nomi bilan bog‘liq idiomalar xalqimizning tabiat bilan bog‘liq munosabatini ochiqlasa, aynan uning idiomalar sifatida berilishi ma’lum bir qush nomi uning tabiatdagi faoliyati, insonlar bilan bog‘liq jarayonlardagi foydali yoki o‘ziga xos xususiyatlari bevosita idiomalarga ko‘chirilganligini ko‘rsatadi.

Rezyume. Ushbu maqolada o‘zbek va xorijiy tillarda qushlar nomi bilan birga qo‘llanuvchi idiomalar tahlilga tortildi va muallif nuqtai nazaridan xulosalar tayyorlandi. Bundan maqsad idiomalar va ularning nutqiy vaziyatlardagi ahamiyatini kelajak til tashuvchilarga yetkazish va bu birliklar haqida ma’lumotlarni jamlashdan iborat.

[1] Begmatova G.X. O’zbek milliy korpusida idiomalar bazasini yaratish: Filologiya fanlari falsafa doktori dissertatsiyasi. – Termiz, 2021.

[2] https://lingua-airlines.ru/articles/zhyvotnye-i-pticy-v-angliiskix-idiomax/

Резюме. В этой статье были проанализированы идиомы, которые используются вместе с названиями птиц на узбекском и иностранных языках, и подготовлены выводы с точки зрения автора. Цель - донести до будущих поколений носителей языка идиомы и их значение в речевых ситуациях и обобщить информацию об этих единицах.

Resume. This article analyzes idioms that are used with bird names in Uzbek and foreign languages, and provides conclusions from the author's perspective. The purpose of this is to convey idioms and their importance in speech situations to future language carriers and to summarize information about these units.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MATN KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK TAHLILINING ASOSIY TAMOYILLARI

Qazaqova Nozima Abdulboqiyevna,
University of Business and Science dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Hamrayeva Yorqinoy Nabijanovna,
Qarshi dablat universiteti professori v.b.

Matn – mazmunan bog'langan belgi birliklari (знаковых единиц) ning ketma-ketligi bo'lib, uning asosiy xususiyatlari mantiqiy va mazmuniy aloqadorlik, to'liqlik, yakunlanganlik, intonatsion yaxlitlikdan iboratdir. Fanda matnni tushunishga doir turlicha qarashlar mavjud. Ular, eng avvalo, bu tushunchaning semiotik va tilshunoslik yondashuvlari orqali talqin etilishi bilan bog'liq bo'ladi. Semiotika nuqtayi nazaridan matn bu mazmuniy ketma-ketlikdagi har qanday belgilardir (bu so'zlarda ifoda etilgan asar ham, musiqiy asar ham, rassomchilik namunasi ham, me'moriy obida ham bo'lishi ham mumkin); tilshunoslikda esa matn bu verbal belgilar ketma-ketligi[1] sanaladi va sohaning markaziy tushunchalaridan sifatida ushbu fanning har qanday aspektida lisoniy birliklarning turli qirralarini yoritishda, muayyan tilning ifoda imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda, aloqa-aralashuv jarayonida eng muhim manbadir.

Til falsafiy jihatdan gnoseologik va ontologik tabiatga ega bo'lgan murakkab fenomendir [2]. Nutq esa tilning reallashuv jarayoni, matn ana shu nutqiy faoliyatning mahsuli, shakliy va mazmuniy yaxlitlikka, tugallikka ega bo'lgan kommunikativ hodisa sanaladi. Matn turlari orasida badiiy matn o'ziga xos xususiyatlarga ega. Badiiy matn tilshunoslikning eng murakkab, ko'p qirrali tekshiruv obyektidir. Chunki u bir necha leksik, grammatik va stilistik sistemalar yig'indisi – sistemalar sistemasidan iboratdir. Badiiy matn bilish va yaratish, aks ettirish va ijodning dialektik birligi asosida vujudga keladi[3]. Badiiy matn – inson borlig'ining til orqali reallashuvi, inson meninig ro'yobga chiqish shakli[4] hisoblanadi. Darhaqiqat, badiiy matn voqelikni badiiy idrok etish va ifodalash mahsuli bo'lib, muallifning muayyan maqsadi, g'oyasi, ijodiy fikrlari tizimi asosida shakllanadi va tilning

[1] Маслова А. Введение в прагмалингвистику. − Москва: Флинта. − С. 25.
[2] Нурмонов А. Лингвистик тадқиқот методологияси ва методлари.−Тошкент: Академнашр, 2010.− Б. 5.
[3] Қиличев Э. Матннинг лингвистик таҳлили. – Бухоро: Бухоро университети, 2000. – Б. 9.
[4] Ёқубов И. Бадиий матн ва эстетик талқин. – Тошкент: Фан ва технология нашриёти, 2013. – Б. 4.